

Date: 15<sup>th</sup> November-2025

TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING  
ISTIQBOLLARI

**Shodiyeva Gulchiroy**

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim  
fakultetining ikkinchi bosqich talabasi

[Tel:+998772663506](tel:+998772663506)

email: gulchiroyshodiyeva1@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada siz yurtimiz mustaqillikka ershgandan so'ng ta'lim –tarbiya tizimining asta-sekinlik bilan takkomillashishi haqidagi ma'lumotga ega bo'lasiz . Xususan, oliy va o'rta maxsus ta'limning joriy qilinishi hamda ular to'g'risidagi o'zgarishlar haqida tanishib chiqasiz

**Abstract:** In this article, you will learn about the gradual improvement of the education system in our country after it gained independence. In particular, you will learn about the introduction of higher and secondary specialized education and the changes that have occurred in them

**Аннотация:** В этой статье вы узнаете о постепенном совершенствовании системы образования в нашей стране после обретения ею независимости. В частности, о введении высшего и среднего специального образования и произошедших в них изменениях.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, islohot, innovatsiya, integratsiya yangilik kiritish, ommalashtirish diffuziya

**Keywords:** Education, reform, innovation, integration, innovation, popularization, diffusion

**Ключевые слова:** Образование, реформа, инновация, интеграция, популяризация, распространение

Ta'lim-bu bilim berishda ,bilim olishda va ko'nikmalar hosil qilishda inson hayotida yetakchi o'rinlarda turadigan ,har bir shaxsning hayotida muhim o'rin egallaydigan asosiy vositadir .uni ko'pchilik tor ma'noda o'qitish deb tushunadilar,lekin ta'lim faqat o'qitish bilan cheklanib qolmasdan tashqari kelajak avlodga yetuk shaxslarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Jumladan, oila tayyorgarligida ham ta'lim va tarbiya muhim ahamiyatga ega .O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda ta'lim borasida ko'plab yutuqlarga erishmoqda,xususan ,oliy ta'lim tashkilotlar ,umum ta'lim maktablaridagi o'quvchi talabalar turli xil kitobxonlik tanlovlarida ,ko'plab yo'nalishlarda o'rin egallashmoqda..Ta'limdagi islohotlar keng va jadal rivojlanmoqda.

Ta'limdagi islohotlarning og'ir va mashaqqatli kechishi tabiiydir .Jumladan har qanday esdalik yangilikka osonlikcha yo'l bo'shatib bermaydi .Bu borada avvalo mutaxassislarining ,ta'lim muassasalarining yordam ko'lamini zarur hisoblangan va shuning uchun hozirda yurtimiz ta'lim sohasida o'ziga xos muvaffaqiyatlarga



Date: 15<sup>th</sup> November-2025



erishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvarda "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy –tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilishdagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sonli farmonida xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim sohasini yanada rivojlantirishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan[1]. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchi yoki talaba munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish o'quvchining ijobiy va ijodiy fikrlashishiga qoniqish hosil qilish, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlariga ishonish va uni rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash lozim hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ta'limni yo'naltirish avvalo pedagog keyin esa otana tomonidan tashkil etilgan omillar bilan bog'liq.

Ta'limning mazmun-mohiyati, uning ko'lami globalligi avvalo innovatsiya tushunchasi bilan bog'liq. Innovatsiya-yangiliklar va tashabbuslar natijasida yuzaga keladigan ta'limning istiqboliga rivojlanishiga keng imkoniyalarning yaratilishida ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ma'lumotlar bazasidir[2]. Ta'lim innovatsiyalari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Barcha talim muassasalarida ijodiy muhitni yaratib berish, yangi g'oyalar va tashabbuslar orqali qiziqitish uyg'otish;

Ta'lim to'g'risida turli yangi qonunlarning qabul qilinishi va unga amal qilish uchun moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sharoitlarni yaratish;

Izlanuvchan yoshlarni bekorchi vaqtlarini samarali tashkil etish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash. Ta'lim tizimini yanada yaxshilash;

Istiqbolli yangiliklar va loyihalarni tashkil etish va ular haqida tanishtirish, yetarli ma'lumotlarni yetkazib bera olish. Maxsuldor g'oyalarni amalda qilib integratsiya ishlarini olib borish.

Innovatsiya haqida berilgan turli xil ma'lumotlarga ko'ra, ta'limning o'ziga xos o'zgarishlarini tashkil etish va bu taxlillar asosida ta'lim tizimini yanada takkomillashishiga ulkan hissa qo'sha olamiz [3]

Talim sohasi bo'yicha so'z borar ekan, bu soha bo'yicha yangiliklar kiritilmoqda. Yangilik kiritish-yangiliklarni amalda qo'llay olishni bildiradi. Yangiliklarni amalda qo'llash belgillangan vaqtda yangicha sifatlarga erishish demakdir. Oddiy ta'lim jarayoni ikkita davr orqali hozirgi paytda odat tusiga kirdi. 1) yangiliklarni ommalashtirish davri, 2) yangiliklar diffuziyasi – ijtimoiy natija yangiliklarini ishlab chiquvchilar va iste'molchilar o'rtasi qayta taqsimlanishi[4].

Oliy ta'lim haqida gapiradigan bo'lsak, yurtimizda malakali kadrlarni tayyorlash va ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlari keng miqyosida rivojlanib bormoqda. Bu esa kelgusi avlodlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bilim dargohlarining sifatini o'zgartirish va ularni moddiy-texnika bazasi yaxshilashga qaratilgan, ilmiy ishlanmalarni tashkillashtirish hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash rivojlantirish kuchayib bormoqda, Shu jumladan, oliy ta'lim muassasalarida hamda umum ta'lim maktablarida professor-o'qituvchilarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Hozirgi kunda innovatsiya yo'nalishidagi alohida davlat tuzilmalari hsm tashkil qilinib, oliy o'quv yurtlarida ham yangidan yangi bo'linmalar ochilmoqda. O'quv jarayonini hozirgi ta'lim

Date: 15<sup>th</sup> November-2025

sifatiga moslashtirib, hamda ishlab chiqarish bilan uzviy ta'minlash va har bir talabaning o'z ustida ishlashi, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini rivojlantirish va oshirish, ilm-fan va innovatsiya sohalariga bo'lgan talabni oshirish uchun xizmat qilayotgan 41 ta ta'lim muassasasiga akademik va moliyaviy mustaqil qaror qabul qilish vakolati berildi. Bu esa o'z navbatida, Yurtboshimizning Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlanganidek, shu yurtda istiqomat qilayotgan har bir insonning tinch va farovon hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz, - degan fikrlari buning iboridir[5]. Ta'limda olib borilayotgan islohotlarda muommolar ham uchrab turibdi. Buning yorqin dalili esa yurtimizda inklyuziv talimni tashkil etishdagi qiyinchiliklardir. Xususan, yurtimizda ko'plab umum ta'lim maktablari bu jarayonga tayyor emasligi va aste sekin bu jarayondagi muommolarni bartaraf etishga qaratilgan say-harakatlardir. Albatta, ta'lim sifatini rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga bir qancha tarkibiy o'zgartirishlar kiritmoq zarurdir. An'anaviy ta'lim va maxsus ta'lim o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlanishi darkor. Yurtimizda hozirga kelib maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lib qolgani yo'q. Shunday ekan biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan keng foydalanmog'imiz zarur. Zeroki O'zbekiston kelajagi – buyuk davlat.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'z. Res. Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy – tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilishdagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sonli farmoni
2. R.X. Djurayev, S.T. Turg'unov "Ta'lim menejmenti" Toshkent "VORIS NASHRIYOT" 2006
3. Sh. Po'latov "Ta'lim menejmenti yoxud muassasani ilmiy-metodik boshqarishga innovatsion yondashuv "O'quv qo'llanma Toshkent "Yosh kuch"-2022.
4. J. Yo'ldashev "Ta'limimiz istiqloli yo'lida ". "Sharq "nashriyot-manba konsernining Bosh taxriri 1996
5. <https://tsuull.uz/uz/content/talim-sifati-kadrlar-sifati>

